

“Mahalla bilan hamkorlik”

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-sonli Farmoni, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 29 apreldagi 202-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash yuzasidan, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi “Shaxrisabz” M.F.Y., bilan TIQXMMI “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti hamkorligida 2021 yil 23 iyun kuni Prezidentimizning 5 ta muhim tashabbusi doirasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan davra suhbatini o'tkazildi.



Tadbirda “Shaxrisabz” M.F.Y. raisi Koshetova Jumabeke Tanibergenovna, raisining xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari Karabaeva Matluba Sobirovna hamda “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakultetining Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari J.Turdiyev, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini mudiri A.Axmedov, kafedra professor-o'qituvchilari A.Bobojonov, Sh.Xojimuxamedova, I.Yuldasheva, A.Tabaev, D.Talipova, N.Akramova, G.Toshxodjaeva hamda mahalla yoshlari ishtirok etishdi. Davra suhbatida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi, she'riyatini hamda hayot yo'lini ifoda etuvchi fikr-mulohazalar bildirildi hamda she'rlar o'qildi. Davra suhbatini so'ngida mahalla idorasiga kitoblar, sport anjomlari sovg'a qilindi.



“SXTI va B” fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati